



UDK 81'42:821.133.1

Muxayyo MAMAJONOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi, PhD, mustaqil izlanuvchi

E-mail: mamajonovamuxayyo7@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d R.Shirinova taqrizi asosida

GI DE MOPASSANNING "AZIZIM" ASARIDA MANIPULYATIV NUTQNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada Gi de Mopassanning "Azizim" asarida qo'llanilgan manipulyativ nutq vositalari lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida qahramonlar nutqida uchraydigan yashirin ta'sir strategiyalari, nutqiy aktlar, baholovchi birliklar hamda kontekstual ma'no yaratish mexanizmlari aniqlanadi. Asardagi manipulyativ nutq ijtimoiy munosabatlar, psixologik bosim va muomala madaniyati bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Olingan natijalar badiiy matnda manipulyatsiyaning pragmatik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Manipulyatsiya, manipulyativ nutq, muomala madaniyati, nutqiy strategiya, ta'sir o'tkazish, manipulyator, nutqiy ta'sir, muloqot.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МАНИПУЛЯТИВНОЙ РЕЧИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ГИ ДЕ МОПАССАНА «МИЛЫЙ ДРУГ»

Аннотация

В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируются средства манипулятивной речи, используемые в произведении Ги де Мопассана «Милый друг». В ходе исследования выявляются стратегии скрытого воздействия, речевые акты, оценочные единицы, а также механизмы формирования контекстуального смысла в речи персонажей. Манипулятивная речь в произведении рассматривается в тесной связи с социальными отношениями, психологическим давлением и культурой общения. Полученные результаты способствуют раскрытию прагматических особенностей манипуляции в художественном тексте.

Ключевые слова: Манипуляция, манипулятивная речь, культура общения, речевая стратегия, воздействие, манипулятор, речевое воздействие, коммуникация.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF MANIPULATIVE SPEECH IN GUY DE MAUPASSANT'S BEL-AMI

Annotation

In this article, the means of manipulative speech employed in Guy de Maupassant's Bel-Ami are analyzed from a linguocultural perspective. The study identifies strategies of covert influence, speech acts, evaluative units, as well as mechanisms for creating contextual meaning in the characters' speech. Manipulative discourse in the work is examined in close connection with social relations, psychological pressure, and the culture of communication. The findings contribute to revealing the pragmatic characteristics of manipulation in literary texts.

Key words: Manipulation, manipulative speech, culture of communication, speech strategy, influence, manipulator, speech influence, communication.

Kirish. Gi de Mopassanning "Azizim" ("Bel Ami") romani 1885-yilda nashr etilgan bo'lib, XIX asr fransuz jamiyati hayotini aks ettiruvchi asardir, muallif unda shu davrdagi Parijning qizg'in voqealarini tasvirlaydi. Bugungi kunda mazkur asar butun dunyoda sevib o'qilishi bilan birga, u haqida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda, xususan, undagi manipulyatsiya va seduksiya bir qator olimlar e'tiborini tortib kelmoqda.

Mazkur maqolada "Azizim" asaridagi asar qahramonlarining nutqi manipulyativ jihatdan qay tarzda ifodalanishi lingvomadaniy tahlil qilinadi. Shuningdek, muomala madaniyatida manipulyativ nutqning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Metod. Ko'plab olimlar nutq madaniyatini nutqni to'g'ri, aniq va shu bilan birga ta'sirchan yetkazib deya ta'riflaganlar, jumladan B.N.Golovin madaniy nutqning asosiy mezonlari sifatida nutqning tog'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, nutqning tozaligi, nutqning o'tkirligi va ta'sirchanligi, o'rinni bo'lishi ta'kidlaydi. Darhaqiqat ushbu mezonlar juda

muhimdir, shu bois biz nutqning ta'sirchanligi va o'tkirligi mezonlariga tayangan holda manipulyativ nutqni badiiy asarda qanday ifodalanishini tahlil qilishga e'tibor qaratdik. Zero manipulyatsiya nutqiy ta'sirning bir shaklidir. Biz tadqiqot obyekti sifatida tanlagan badiiy asar «Azizim» da ushbu nutq turi keng qo'llanilgan, shuni ham ta'kidlash joizki, Gi de Mopassanning bir qator asarlarida manipulyativ va seduktiv nutq shakllari mavjud.

Manipulyatsiya bu muloqot jarayonida so'zlovchi (manipulyator) tomonidan tinglovchining fikriga, ongiga, qabul qiladigan qarorlarini o'zgartirishga yashirin tarzda ta'sir etish usulidir. Biz mazkur maqolada asar qahramonlarining muomala madaniyati qoidalaridan chetga chiqmagan holda manipulyatsiyadan qay tarzda foydalanganliklarini tahlilga tortamiz. Ma'lumki, muomala madaniyati doirasida nafaqat ijobiy, balki muammoli va kontrast vaziyatlarni ham tadqiq qilinishi zarur. Aynan mana shunday manipulyatsiyaning muloqotda qo'llanilishi muomala madaniyatining muhim jihatlaridan deyish mumkin. Tadqiqot obyektimizni tahlil qilish

jarayonida nutq meyorlaridan chetga chiqishdan ko'ra unga uddabironlik bilan amal qilish kuzatildi.

«Shaxsga ta'sir o'tkazishda o'zaro muloqot jarayonida muloqot madaniyati asosiy o'rin tutadi. Bu holda suhbatdoshimizga emotsional, verbal, noverbal ta'sir o'tkazamiz.» Shaxsga ta'sir o'tkazishda o'zaro muloqotning turlari mavjud bo'lib, u quyidagilarga bo'linadi: bevosita yoki bilvosita muloqot, umumiy muloqot, shaxslararo muloqot, imperativ muloqot (lat., imperativus – boshliq), manipulyativ muloqotdir.

Tahlil va natijalar. Bizning tadqiqot ishimizga obyekt sifatida tanlab olingan «Azizim» asarida, umuman G.Mopassanning bir qator asarlarida manipulyativ nutq shaklidan foydalanilganligini jamiyatdagi ijtimoiy normalarning buzilishi, asar qahramonlarining dialogik nutqidan yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur asar qahramoni Jorj Dyuranning jamiyatda o'z o'rnini topish, ko'zlagan niyat va maqsadlariga yetish uchun manipulyatsiyaning verbal va noverbal shakllaridan foydalanish bilan birga seduktiv nutq va harakatlardan foydalanadi, muallif bu orqali agar manipulyatsiya va seduksiya ijobiy bo'lmagan maqsadlarda qo'llanilsa salbiy axloqiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Jorj Dyuranning nutqi ta'sirchan, maqsadli, xushmuomala, ayniqsa ayollar bilan suhbatda bo'lganda o'ta samimiy va mehribon niqob ostida ularni o'ziga tortadigan, ishbilarmon kishilar davrasida so'zlariga juda aqlli tus bergan, donolik bilan aytilgan fikrlari orqali e'tibor qozongan, uning nutqi uslubi esa asosan suhbatdoshiga moslashuvchandir. Ushbu moslashuvchanlik uning nutqi strategiyasidir, u shaxsiy manfaatlarda samarali qo'llaniladigan ijtimoiy kodlarni yaxshi o'zlashtirgan va amaliyotga tadbiiq etadi. Bundan tashqari asarning boshqa bir qahramoni Forestening nutqida ham manipulyatsiyaga targ'ib qilinishi quyidagi suhbat orqali o'z aksini topadi.

– Ça ne fait rien, du moment que tu as poussé tes études jusque'au bout. Si on parle de Cicéron ou de Tibère, tu sais à peu près ce que c'est ?

– Oui, à peu près.

– Bon, personne n'en sait davantage, à l'exception d'une vingtaine d'imbéciles qui ne sont pas fichus de se tirer d'affaire. Ça n'est pas difficile de passer pour fort, va ; le tout est de ne pas se faire pincer en flagrant délit d'ignorance. On manœuvre, on esquive la difficulté, on tourne l'obstacle, et on colle les autres au moyen d'un dictionnaire. Tous les hommes sont bêtes comme des oies et ignorants comme des carpes. (p.18-19)

- Agar o'rtta bilim yurtim bitirgan bo'lsang. buning ziyoni yo'q. Sening oldingda gap Siteron yoki Tiberiy ustida ketayotgan bo'lsa, buning mag'zini chaqishga aqling yetar deyman?

- Uncha-muncha.

- Shuning o'zi katta gap, o'n-o'n besh kallaxumni demasang, boshqalar ham shundan ortiq narsani bilmaydi, kallaxumlarning ham bularmi bilgani bilan aqlli bo'lib qolmaydi. Gapimga ishon, o'zingni bilag'on qilib ko'rsatishdan osoni yo'q. Hamma gap o'zingning nodonligingni boshqalarga oshkorqilib qo'ymasligingda. Dumingni tutqazma, gapni aylantir, chetga bur, xijolat chekiladigan vaziyatlarga tushma, to'siqlami aylanib o't va nomuslarni ro'kach qilib boshqalarning og'ziga ur, misini chiqar. Odamlarning hammasi - g'irt omi va ahmoq, hech birining to'nkadan farqi yo'q. (13-14b.)

Ushbu parcha Jorj Dyura va Foreste o'rtasidagi suhbatdan olingan bo'lib, unda asar qahramoni Jorj Dyuranning hayot falsafasi, manipulyativ yo'lni tanlashi, boshqalarni boshqarish, odamlarni o'zidan past ko'rish, vaziyatni o'zining foydasiga hal qilish strategiyasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Quyidagi misolda esa Jorj Dyuranning ayollarni manipulyatsiya qilish nutqi beriladi:

– Je suis à vous, madame, comme il vous plaira. Elle sentit la sincérité de la pensée dans la voix, et elle donna ses mains. Il les baisa, l'une après l'autre, puis il dit simplement en relevant la tête : – Cristi, si j'avais trouvé une femme comme vous, avec quel bonheur je l'aurais épousée ! Elle fut touchée, cette fois, caressée par cette phrase comme les femmes le sont par les compliments qui trouvent leur cœur, et elle lui jeta un de ces regards rapides et reconnaissants qui nous font leurs esclaves.

- Kaminani o'z ixtiyoringizda deb biling. Foreste xonimga uning bu gapi samimiy bo'lib eshitildi va u ham qo'lini berdi. Dvurua uning qo'llarini o'pdi va ko'zlarini unga tikib yuragidan chiqarib dedi: - Qasamyod qilamanki, agar sizga o'xshagan ayolni uchratganimda unga, albatta uylangan bo'lardim! Ayollar, odatda, Dyuruanikiga o'xshagan bundav maqtovlarni yuraklariga yaqin oladilar, shuning uchun ham xonim bu gapdan erib ketdi va unga shunday bir minnatdor qarash bilan boqdiki, bunaqangi qarash siz-u bizni o'ziga qul qilib oladi.

Yuqoridagi misolda ayolning emotsiyalariga ta'sir etish, uning mehr va ishonchini qozonishga urinish ko'zga tashlanadi. Dyuranning Je suis à vous, madame - Kaminani o'z ixtiyoringizda deb biling iborasini ishlatishi bejiz emas, zero manipulyator bu so'zi bilan o'zini sadoqati, itoati va yaqinligini namoyon etmoqda.

Qasamvod qilamanki, so'zini qo'llash bilan qasam ichish orqali so'zlovchi o'zining so'zlari chin ekanligini e'tirof etmoqchi bo'ladi, agar sizga o'xshagan ayolni uchratganimda, albatta uylangan bo'lardim! shartli komplimenti bilan esa erkakning maqtovi ortida ayolni o'ziga rom etish maqsadi yashiringanligini aks ettirmoqda. Buni manipulyativ strategiya sifatida keltirish mumkin va bu strategiya muvaffaqiyatli yakunlanganini ayolga bu o'z ta'sirini ko'rsatganligini ayolning holatidan tushunish qiyin emas. Shunday qilib, mazkur parchada seduksiya va manipulyatsiya birlashmasini ko'rish mumkin.

Manipulyatsiya oddiy ta'sir o'tkazish va ishontirishdan farq qiladi. Ta'sir o'tkazish odatda zararsiz deb hisoblanadi, chunki u ta'sir o'tkazilayotgan shaxsni ta'sirni qabul qilish yoki qilmaslik huquqini hurmat qiladi va ortiqcha majburlamaydi

Mazkur asarni nafaqat manipulyativ nutq jihatidan, balki uni fransuz muomlala madaniyatining bir timsoli sifatida qarash mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mashxur adib Gi de Mopassan «Azizim» romanida manipulyativ nutqni qahramonlar tili bilan mohirona ifoda etadi. Asardagi nutqlar emotsiyalarga ta'sir o'tkazish, o'z manfaatlarini ximoya qilish maqsadida muomala madaniyatining psixologik va madaniy jihatlarini aks ettirishini kuzatish mumkin. Ifoda etilgan manipulyativ nutq qahramonlarning xarakterini ochib berishga xizmat qiladi, shu bilan birga muallif insonlarning o'zaro muloqotda bo'lishini insoniylik fazilatlarining lingvomadaniy mexanizmlarini badiiy uslubda aks ettirgan. Ushbu romanning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, manipulyativ nutq shakli muloqotning psixologik va pragmatik jihatlarini ham o'zida aks ettiradi.

ADABIYOTLAR

1. Головин Б. Н. Основы культуры речи. — М. : Высшая школа, 1980. — С. 12–39.

2. Ozdemir I. The function of seduction in Guy de Maupassant’s novels: Bel-Ami, Une Vie and Pierre et Jean : Master’s thesis. — Montclair : Montclair State University, 2010.
3. Муминов А. Г. Empathy in modern conditions: views, factors, manifestations // Журнал социальных исследований. — 2021. — № 4. — С. 13–23.
4. Rajabov Murodil Jumabayevich. Shaxslararo munosabatlarda manipulyativ ta’sir usullari tahlili // Ta’lim psixologiyasi. — 2023. — № 5. — В. 43.
5. Maupassant G. Bel-Ami. — Paris : Livre de Poche, 2008.
6. Мопассан Г. де. Азизим. — Тошкент : Янги аср авлоди, 2006.
7. Nichols S. The ethics of manipulation // Stanford Encyclopedia of Philosophy. — Stanford : Stanford University, 2020. — (дата обращения: 22.03.2020).
- 8.